

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Respublikada bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta‘minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-mart oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 123,7 mln. AQSH dollariga yetdi va 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 7,7 mln. AQSH dollariga yoki 94,1 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: 123,7 94,1 %

(2022- y.: 131,4)



Saldo

2023- y.: - 13,4 (2022 y.: - 31,7)



Eksport

2023- y.: 68,6 84,0 %

(2022- y.: 81,6)



Tovarlar: 68,4



Xizmatlar: 0,2



Import

2023- y.: 55,2 +10,6 %

(2022- y.: 49,9)




Tovarlar: 49,7



Xizmatlar: 5,5

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YEOIIGA A‘ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Qoraqalpog‘iston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 43,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 20,5 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 22,8 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta‘minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TUMANLAR
KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2023- yil yanvar-mart)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O‘sish sur‘ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	123,7	94,1	100,0
Nukus shahri	66,6	85,7	53,8
<i>hududlar:</i>			
Amudaryo	6,6	391,9	5,4
Beruniy	3,4	59,4	2,8
Bo‘zatov	0,4	150,8	0,4
Qorao‘zak	4,6	95,1	3,7
Kegeyli	1,3	46,3	1,0
Qo‘ng‘irot	2,0	173,8	1,6
Qonliko‘l	6,4	222,4	5,2
Mo‘ynoq	7,1	98,7	5,7
Nukus	0,8	114,4	0,6
Taxiatosh	4,1	55,1	3,3
Taxtako‘pir	0,2	69,7	0,1
To‘rtko‘l	10,2	104,3	8,3
Xo‘jayli	2,0	105,9	1,6
Chimboy	3,0	136,9	2,4
Shumanay	0,7	412,7	0,6
Ellikqal‘a	4,2	88,8	3,4

Eng yuqori
mln. AQSH dollari



Eng quyi
mln. AQSH dollari




Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 53,8 % ulush bilan 66,6 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Taxtako‘pir tumani 0,1 % ulush bilan 0,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni 79 taga yetdi va ular tomonidan 68,6 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan 84,0 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi % da)




Qoraqalpog‘iston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.


QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
KESIMIDA EKSPORTI
(2023- yil yanvar-mart)*

	Hajm Mln. AQSH dollari	O‘sish sur‘ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	68,6	84,0	100,0
Nukus shahri	45,1	76,7	65,8
<i>hududlar:</i>			
Amudaryo	4,4	447,1	6,4
Beruniy	2,1	56,2	3,1
Bo‘zatov	0,3	126,2	0,4
Qorao‘zak	0,4	151,1	0,5
Kegeyli	1,3	59,8	1,9
Qo‘ng‘irot	0,6	1 255,5	0,8
Qonliko‘l	5,9	213,2	8,6
Mo‘ynoq	1,2	64,8	1,8
Nukus	0,6	283,7	0,8
Taxiatosh	0,6	34,1	0,8
Taxtako‘pir	0,1	33,5	0,1
To‘rtko‘l	0,5	22,2	0,7
Xo‘jayli	0,3	53,3	0,4
Chimboy	1,3	94,5	1,9
Shumanay	0,7	412,7	1,0
Ellikqal‘a	3,3	78,4	4,8

Eng yuqori
mln. AQSH dollari



Eng quyi
mln. AQSH dollari



Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 65,8 % bilan 45,1 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Taxtako‘pir tumani 0,1 % bilan 0,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.




QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI

2023- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 55,2 mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (28,5 %), sanoat tovarlari (10,9 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (10,5 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart, ulushi, % da)




Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 mln. AQSH dollariga ko‘paydi va 49,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TUMANLAR
KESIMIDA IMPORTI**
(2023- yil yanvar-mart)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O‘shish sur‘ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	55,2	110,6	100,0
Nukus shahri	21,5	113,9	38,9
<i>hududlar:</i>			
Amudaryo	2,2	315,9	4,1
Beruniy	1,3	65,5	2,4
Bo‘zatov	0,2	210,3	0,3
Qorao‘zak	4,2	92,1	7,6
Kegeyli	0,0	0,0	0,0
Qo‘ng‘irot	1,5	129,8	2,7
Qonliko‘l	0,5	423,4	1,0
Mo‘ynoq	5,9	110,7	10,6
Nukus	0,2	43,8	0,4
Taxiatosh	3,5	61,1	6,4
Taxtako‘pir	0,1	6 567,2	0,2
To‘rtko‘l	9,7	129,3	17,6
Xo‘jayli	1,8	125,3	3,2
Chimboy	1,7	211,5	3,0
Shumanay	-	-	-
Ellikqal‘a	0,9	173,3	1,6

Eng yuqori
mln. AQSH dollari



Eng quyi
mln. AQSH dollari



Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Nukus shahri 38,9 % bilan 21,5 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Kegeyli tumani 0,0 % bilan 0,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.